

26-MAY

2023



Toshkent tibbiyot
akademiyasi



Toshkent davlat
stomatologiya instituti

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed

CYBERLENINKA

Google
scholar



Toshkent tibbiyot akademiyasi

www.tma.uz

Toshkent davlat stomatologiya
isntituti

www.tsd.uz

“Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida Ijtimoiy fanlarni o'qitishning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2023-yil 26-mayda Anjumanda Rostov davlat tibbiyot universiteti, X.A.Yassaviy nomidagi Xalqaro qozoq-turk universiteti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, O'zbekiston Milliy universiteti va boshqa xalqaro hamda respublikaning nufuzli oliy ta'lim muassasalari hamkorligida tashkil etilgan konferensiya asosida tayyorlangan bo'lib, ushbu to'plam tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida Ijtimoiy fanlarni o'qitishdani muammolariga bag'ishlangan.

Keltirilgan dalillar, iqtiboslar va statistik ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun maulliflar mas'uldirlar.

Toshkent - 2023



TIBBIYOT OLIY O'QUV YURLARIDA O'ZBEKISTON TARIXINI O'QITISHNING DOLZARBLIGI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Nilufar Shomuratovna Niyozova

Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti, f.f.n.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tibbiyot oliy o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixini o'qitishning dolzarbligi, bo'lajak shifokor uning uchun uning amaliy ahamiyati va o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarning zarurati mohiyatan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston tarixi, tibbiyot, shifokor, kadr, pedagogika, texnologiya, o'qitish

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ И РОЛЬ ПЕРЕДОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЕЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ

Нилуфар Шомуратовна Ниёзова

Доцент кафедры Общественных наук Ташкентской медицинской академии,
кандидат философских наук

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрывается актуальность преподавания истории Узбекистана в медицинских вузах, его практическая значимость для будущего врача, потребность в передовых педагогических технологиях в обучении.

Ключевые слова: История Узбекистана, медицина, врач, кадры, педагогика, технология, преподавание.

Yangi O'zbekistonni barpo etish g'oyasi milliy ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirish uchun zamin yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlarida birinchi bo'lib Yangi O'zbekiston ta'lim sohasida qat'iy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ayniqsa Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi bu borada yangi bosqichni boshlab berdi. Natijada ta'lim tizimi va uning mazmun - mohiyati jahon andozalari mos ravishda yanada takomillashtirilmogda. Hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon



talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Mamlakatimizda aynan shu sohada olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlariga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iborat. Aynan ana shu maqsadga erishish uchun Prezidentimiz rahnamoligida yangi davrda yashaydigan, yangicha fikrlaydigan, yangi ishlab chiqarish, ijtimoiy sharoitlarda faoliyat ko'rsatadigan, zamonaviy kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlashning o'ziga xos zamonaviy modeli hayotga tadbiq etilmoqda. Bu esa Uchinchi Renessansga qadam qo'yishning asosi mezonidir. Shu nuqtai nazardan mavzuning dolzarbligi quyidagilardan iborat.

Birinchidan, tibbiyot oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan yoshlarni zamonaviy talablarni inobatga olingan holda tayyorlash tizimini muntazam takomillashtirib borish ishlarini tashkil etish bugungi davr ehtiyoji va kishilarimizning, davlat va jamiyatning unga ehtiyojmandligi natijasidir.

Ikkinchidan, sifatli shifokor kadrlar tayyorlash, ularga ta'lim va tarbiya berish uchun, zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, innovatsion yangilanish asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir, zamonaviy sharoitda pedagog kadrlar yangi axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalar, ta'lim jarayonini faollashtiruvchi vositalardan o'quv mashg'ulotlarida unumli foydalanish; o'qituvchilarning mustaqil ishlarini metodik ta'minlash; ta'lim-tarbiya jarayoniga milliy istiqlol g'oyasini singdirish malakasi va psixologik bilimlarga ega bo'lish; o'zida axloqiy, ma'naviy, kasbiy, ijtimoiy, individual-psixologik xususiyatlarni tarkib toptirib borish kabi sifatlarga ega bo'lishi zarur.

To'rtinchidan, malakali, shuningdek, Vataniga fidoiy mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ularning intellektual salohiyatini, saviyasi hamda ajdodlar merosiga hurmatni yuksaltirish, xususan o'z tarixini bilish bilan ham belgilanadi. Xalqimizning shonli o'tmishi, bunyodkorlik salohiyani tarixiy aspektda o'rganish va o'rgatish tibbiyot oliy o'quv yurtlaridagi muhim masalalaridan biridir.

Har bir fanning, xususan O'zbekiston tarixi fanining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatishda uni yosh avlod ta'limi va tarbiyasining muhim bo'g'ini ekanligiga alohida e'tibor qaratish zarur. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev shunday ta'kidlaydi: "Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak: milliy tariximizni xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi"[1].

O'zbekiston tarixini o'rganish bo'lajak shifokor talabalarga faqatgina yangi ma'lumotlarni berib qolmay, balki intellektual salohiyati, qanday ulug' ajdodlarning vorisi ekanligi hissining



ortishiga ham xizmat qiladi. Chunki bugungi davr yoshlari kelajak poydevori sifatida e'tirof etilar ekan, u tarixni faqat umumiy bilimlar konsepsiyasida emas, balki uni o'rganishning ijtimoiy omillari, zarurati, qolaversa, kasbiga doir tarixiy taraqqiyot darajalarini ham bilmog'i kerak.

O'zbekiston tarixi fanida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni takomillashtirishdan asosiy maqsad - pedagogik jarayonda ilmiy va pedagogik faoliyatning integratsion rivojlanishi, har ikkisining tarkibiy tuzilishi, ob'ektiv va sub'ektiv omillari hamda vositalarini modulli o'qitishga bog'lagan holda konseptual nuqtai nazardan tahlil etib, ularning o'ziga xos xususiyatlari va bog'liqligini ko'rsatishdan iborat.

O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni yanada takomillashtirishning ahamiyati esa:

- Vatanimiz taraqqiyoti tarixiy asoslari va unga ijodiy vorislikning ahamiyatini asoslash;

- yurtimiz tarixini yoritishdagi ob'ektiv shart-sharoitlar va sub'ektiv omillar, xususan tibbiy turizm rivojidadagi rolini aniqlash;

- ijtimoiy fenomen sifatida O'zbekiston tarixining strukturaviy funksional tahlilini qilish;

- O'zbekiston tarixi fanining tarixiy ong shakllantirishdagi ahamiyatini ko'rsatish;

- Uchinchi Renessans poydevorini yaratish konseptual g'oyasining mazmun-mohiyatini tushunishda boy tariximizning rolini ko'rsatishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasida jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishda, xususan ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ahamiyati beqiyosdir. Shu tufayli respublikamizda ta'lim tizimi sohasida axborot kommunikatsiya texnologiyalari tizimini shakllantirish, mashg'ulotlarga ularni keng joriy qilish va ulardan foydalanish, talabalarning yangi axborotlarga ehtiyojlarini to'laroq qondirish, mashg'ulot sifatini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Barcha fanlar qatori O'zbekiston tarixini o'qitishda ham global internet tarmog'i materiallari va multimedia tizimlaridan foydalanish fanning manbashunosligini yanada boyitadi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida mashg'ulot o'tkazishni kuchaytirish nafaqat talabalarning intellektual salohiyatini oshiradi, shu bilan birgalikda mashg'ulotning intensivligini, pedagogik mahoratni erkinrok ifoda qilishga ko'mak beradi. Xorij tajribasi hisoblangan modulli tizim O'zbekiston tarixi fanida o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Bu xususiyatlarni quyidagicha belgilash mumkin:



- Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni doimiy yangilash imkonini beradi;
- O'qituvchi va talaba texnik jihozlar ta'minotida mashg'ulot sifatini ta'minlaydi;
- Aynan mashg'ulot vaqtida mavzuga doir yangi ma'lumotlarni olishni ta'minlaydi;
- Topshiriqlarni bajarishni tezlashtirishga imkon yaratadi;
- Talabalar mustaqil ishlashini ta'minlaydi va h.k. [2]

Yuqoridagi fikr-mulohazalarga tayanib, quyidagi umumlashtiruvchi xulosani berish mumkin:

- **birinchidan**, O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda innovatsiyalar va multimedia tizimidan foydalanishni keng jalb qilishni rivojlantirishning shart-sharoitlarini funksional tizimlashtirish pedagogik faoliyat imkoniyatlarini namoyon etadi;

- **ikkinchidan**, O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda jahon tajribalari asoslarini o'rganish fanning yangi qirralarini namoyon etish takomilidagi muhim substansional jihatlarni ochib beradi;

- **uchinchidan**, O'zbekiston tarixiga oid ilmiy-amaliy loyihalarning tatbiq etilishi fanning samaradorligiga xizmat qiladi;

- **to'rtinchidan**, O'zbekiston tarixining metodologik asoslarini zamonaviy pedagogik nuqtai nazaridan yanada ko'proq o'rganish va uni mashg'ulotlarga tatbiq etishni kuchaytirish fan ravnaqidagi belgilovchilik ahamiyatini kasb etadi.

REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T., O'zbekiston, 2021. 288-bet.
2. Niyozova N.Sh. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim rivojida sifatli o'qitishning asosiy tamoyillari. Barqaror taraqqiyotda ayollar: ilm-fan va sifatli ta'lim. III xalqaro konferensiya to'plami. - Toshkent, 2023. 571-575 betlar.



CONTENTS

MUNDARIJA

14. Абдуллаева, Р. М. (2023). КОММУНИКАТИВНАЯ НАПРАВЛЕННОСТЬ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 79-85.

15. Латипова, Н. (2023). ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СОЦИЛЬНОЙ РАБОТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 86-91.

16. Умирзакова, Н. А. (2023). БИОЭТИКА ФАНИ АКЦИОЛОГИК ВАЗИФАСИНИНГ ШИФОКОР КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ МУСТАҲКАМЛАШГА ТАЪСИРИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 92-96.

17. Atamuratova, F. S. (2023). ZAMONAVIY TIBBIY TA'LIMDA BIOETIKANI O'QITISHNING ZARURIYATI VA MUAMMOLARI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 97-101.

18. Alimova, S. G. (2023). BO'LAJAK BOSHQARUVCHILARNI O'QITISHDA INTERAKTIV USULNI QO'LLASH ZARURATI VA ICHKI IMKONIYATLAR. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 102-105.

19. Yuldasheva, L. S. (2023). HYGIENE MEASURES IN IBN SINO'S WORKS. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 106-108.

20. Niyozova, N. S. (2023). TIBBIYOT OLIY O'QUV YURLARIDA O'ZBEKISTON TARIXINI O'QITISHNING DOLZARBLIGI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 109-112.

21. Iskandarov, S. A. (2023). O'ZBEKISTON TARIXINI O'QITISH - YOSHLARDA TARIXIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA MUHIM OMIL. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 113-117.

22. Norqulov, D. T. (2023). TIBBIY OLIY O'QUV YURLARIDA IJTIMOIIY FANLARNI O'QITISHNING AHAMIYATI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 118-121.

23. Абдурахманова, Н. Х. (2023). ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ВА ДЕМОКРАТИЯ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 122-124.

24. Ashrapova, M. M. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY ISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIMDAGI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 125-128.

25. Tashkenbayev, T. T. (2023). THE ROLE OF SOCIO-HUMANITARIAN DISCIPLINES IN THE FORMATION OF A MEDICAL WORKER OF MODERN EDUCATION. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 129-131.

26. Tashkenbayeva, D. (2023). FEATURES OF THE INTRODUCTION OF THE HUMANITIES STUDIES IN MEDICAL EDUCATION THROUGH THE STUDY OF THE HISTORY OF THE MEDICINE. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 132-134.

